DOI 10.5281/ZENODO.7977193

Egamova Xurshida Erkinovna
Andijon viloyati Oltinko'l tuman 2-son kasb-hunar maktabi
Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari

O‘QUVCHILARDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH VA ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Annotatsiya: Shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini rivojlantirish uchun ta’lim dargohlaridagi islohotlar natijasida istiqbolda mamlakatimiz ravnaqi uchun zarur intellegensiya qatlamining roli oshib boradi. Ziyolilar qatlamining asosini yoshlar tashkil etishi va ularning jamiyat boshqaruvi sohasida muhim o‘rin egallashiga erishishi davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Jumladan, ushbu maqolada o'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlatirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: intellektual madaniyat, intellegensiya, inson kapitali, global taraqqiyot.

Fuqarolik jamiyati sharoitida o‘sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashga, yuksak ma’rifatga ega bo‘lgan intellektual madaniyatli shaxs darajasiga olib chiqishga bog‘liqdir. Shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini rivojlantirishga bo‘lgan bunday zarurat quyidagicha shartlarni o‘zida ifodalaydi:

Birinchidan, barcha o‘quv-ta’lim dargohlarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi kadrlarni zamon talablariga mos ravishda malakasini oshirishi, qayta tayyorlash, ularni jahon ilm-fani yutuqlaridan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishlari uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

Ikkinchidan, o‘quv-ta’lim dargohlarini moddiy-texnik bazasini jahon standartlariga moslashtirish, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ilmiy-badiiy adabiyotlar bilan axborot resurs markazlarini boyitish;

Uchinchidan, barcha ilm maskanlarida ta’lim olayotgan tinglovchi yoshlarni o‘quv jarayonlarida o‘z intellektual madaniyatini namoyon etishlari uchun ilmiy-ma’rifiy anjumanlar, baxs-munozaralar va ilmiy-adabiy uchrashuvlarni tashkil qilish lozim.

Yuqoridagi jarayonlarning mukammal tarzda amalga oshirilishi istiqbolimiz tayanchi bo‘lgan yoshlarining yuksak intellektual madaniyat egasi bo‘lib yetishishlari uchun yetarlicha imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor

https://wordlyknowledge.uz

beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart” degan fikrini hayotga kengroq tadbiq etish kelajak uchun kutilgan samarasini beradi. Umuman shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini rivojlantiruvchi barcha vositalarning zamon talablariga mos ravishda takomillashib borishi zarur.

XXI asr insoniyatdan fan-texnika taraqqiyotini yangicha sifat bosqichiga ko‘tarishni talab qilmoqda. Bizningcha esa mana shu talab doirasida zarur bo‘lgan tafakkur islohotlarini jadallashtirish, o‘zimizda sog‘lom ehtiyojlarni shakllantirishimiz natijasida har qanday rivojlanish holatidan qoniqmaslik paydo bo‘ladi. Ya’ni, mavjud vaziyatdan qoniqish turg‘unlikni yuzaga keltiradi. Insonni o‘zida yangi ehtiyojni hosil bo‘lishi taraqqiyot manbaidir. Hozirgi davrda aqlan zukko, kreativ qobiliyatli, izlanuvchan va mustaqil mulohaza yurituvchi yoshlar jamiyatni ilmiy-texnik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi ulkan kuch, quvvat bo‘lib ular kelajakda barcha sohalarda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvi lozim bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan muammoga yondashuv iste’dodli yoshlarni izlab topish muayyan yo‘nalishga yo‘naltirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Chunki, ularning har qaysisiga xos bo‘lgan individual xususiyatlar, yashirin imkoniyatlarni ochish, takomillashtirish, ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi omillar va vositalar topish, ya’ni ularning jamiyat ehtiyoji talabi hamda rivojlanish imkoniyatiga mos ravishda maqsadga yo‘naltirish lozim. Bilim olish jarayonida mustaqil fikrlash va noan’anaviy uslubda tafakkur yuritish ijtimoiy taraqqiyotga olib kelishi mumkin.

Milliy ma’naviy immunitetni rivojlantirish va mustahkamlashda quyidagi omillarni vujudga keltirish hamda ulardan samarali foydalanish amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Birinchidan, milliy intellektual salohiyatni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishdir. Buning uchun ta’lim va milliy tarbiyani, urf-odat, an’ana va qadriyatlarni yoshlar dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish, yoshlarning o‘z millatining qadriyatlari boy, go‘zal va har doim ham zamonaviy ekanligini hamda ustun ekanligini his etishi va o‘z ma’naviyatini boyitib borishning asosiy manbai sifatida qaraydigan bo‘lishiga erishish lozim. Ikkinchidan, ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlar tarbiyalanadi. Mening fikrimcha, jamiyatda intellegensiyaning muhim bir vazifasi shundaki, bu qatlam individual tarzda o‘zini o‘zi tashkillashtiradi, rivojlantiradi va to‘ldirib boradi. Ya’ni, intellegensiya o‘z faoliyati uchun zarur barcha vositalarni va yo‘llarni o‘zi ishlab chiqadi hamda zamonasiga mos xolda takomillashuvini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ilmiy ijodni ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga mos ravishda rivojlantirishda sinergetik yondashuvga alohida

https://wordlyknowledge.uz

e’tibor berish ham ahamiyatlidir. Binobarin, intellegensiyaning muhim bir xususiyati shundaki, bu qatlam individual tarzda o‘zini o‘zi tashkillashtiradi, rivojlantiradi va to‘ldirib boradi. Ya’ni, intellegensiya o‘z faoliyati uchun zarur barcha vositalarni va yo‘llarni o‘zi ishlab chiqadi hamda zamonasiga mos holda takomillashuvini ta’minlaydi. Ta’kidlash lozimki, shaxsdagi intellektuallik darajasining yuqoriligi doim ham foydali bo‘lib chiqavermaydi. Sababi faylasuf X.Tyurel fikricha “yetuk intellektual madaniyat egalari yetuk intellektual darajadagi jamiyatni tashkil qiladi, lekin bu jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun kafil bo‘la olmaydi. Buning uchun intellektual barkamollik diniy-axloqiy e’tiqod bilan birga shakllangan bo‘lmog‘i lozim”. Darhaqiqat, shaxs biror bir diniy-axloqiy, vatanparvarlik mezonlari doirasida faoliyat ko‘rsatmas ekan, u qanchalik intellektual madaniyatli bo‘lmasin, o‘z xalqiga foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq tegadi.

Global taraqqiyot davrida insonlar ijtimoiy ongi va dunyoqarashi muttasil yangilanib, uning qirralari tobora kengayib bormoqda. Shu jumladan yangicha ilmiy tafakkur tarzi shakllanib, uning ta’sirida noan’anaviy g‘oyalar, fikrlar yuzaga kelmoqda. Ushbu jarayonlar oqibati o‘laroq, shaxs va jamiyat intellektual madaniyatini rivojlantiruvchi vositalar yuzaga chiqmoqda. Masalan, ilmiy-texnika, adabiyot va sa’nat hamda o‘quv metodikasidagi ijobiy yangiliklar shular jumlasidandir.

Rivojlanib borayotgan fuqarolik jamiyati aynan mazkur o‘zgarishlar vositasida takomillashishini nazarda tutgan xolda yoshlarni istiqbolda intellektual madaniyatli etib tarbiyalashimizni talab qilinmoqda. Buning uchun mazkur masalani bartaraf etishda katta avlodga mansub yuksak intellektual madaniyatli shaxslarning jamiyatdagi mavjud muammolar yechimini topishi muhim ijtimoiy zaruriyat bo‘lib qolmoqda. Demak, bu borada ular avvalo o‘zlariga o‘xshash salohiyatli yoshlarni tarbiyalashi uchun jamiyatimiz taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan bir qancha muammolarni bartaraf etishlari lozim.

Shuningdek, keksa avlodning ruhiyati, qarashlari va jamiyatga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib, fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida muhim ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar tarafdori bo‘lgan faol yoshlarni voyaga yetkazish, umumxalq ongida yangicha siyosiy-iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, orqali eski, boshqaruv tuzum sarqitlarini bartaraf etishning usul va vositalarini ishlab chiqish hamda islohotlarini o‘tkazish jarayonida rasmiy byurokratik holatlarni, hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlashda qo‘yilayotgan sustkashliklar yoki amaliyotdan uzoqlashish holatlarini tugatish, jamiyat a’zolarining huquqiy ongini yuksaltirish, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotini o‘zlashtirishda davlat ta’lim standartlariga amal qilgan xolda ta’lim tizimida ,avvalo, raqobat muhitini shakllantirish zarur. Shuning bilan bir qatorda fan-texnika vositasida jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar olib chiqishga imkon beradigan zamonaviy tarmoqlarni yaratish va ilm fan taraqqiyotini

https://wordlyknowledge.uz

ta’minlovchi yosh kadrlarni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan xabardor bo‘lishlari uchun shart-sharoit yaratib berish, ijtimoiy infrastruktura va maishiy xizmat sohalarini rivojlantirish lozim. Milliy g‘oyani xalq ruhiyatiga singdirish borasidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, ilm fan sohasida xizmat qilayotgan xodimlar oldida turgan mavjud to‘siqlarni: qog‘ozbozlik, buyruqbozlik, ta’magirlik kabi illatlarni oldini olish, fan rivojiga yetarli darajada e’tibor erkinlik berish va shu kabi masalalarni yechish. Ma’lumki, barcha dunyoviy bilimlar va texnologiyalar o‘zgarib boradi hamda takomillashadi. Bu jarayon asosida esa mehnat bozorida yangidan-yangi kasblar va sohalar vujudga keladi. Demak, bizningcha shaxs va jamiyat intellektual salohiyatini ham bugungi jahon mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan xolda shakllantirishimiz va rivojlantirishimiz lozim. Bu borada intellektual salohiyatni yuksaltiruvchi barcha omillarni ham mazkur talablarga muvofiq takomillashtirib borishimiz darkor bo‘ladi. Barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytib otish joizki, jamiyatimiz intellektual salohiyatini rivojlantirish va yanada yuksaltirish vositalari sifatida ko‘rib chiqilgan omillar doimo o‘zgarishda va takomillashuvda bo‘lib, ularning barchasi intelligensiyaning vorisiylik tamoyili asosida vujudga keladi hamda ravnaq topadi. Shaxs intellektual madaniyatini rivojlantirishda yana bir muhim vosita bu badiiy va ilmiy ma’rifiy adabiyotlardir. Darhaqiqat, u xoh badiiy asar bo‘lsin, xoh ilmiy ma’rifiy asar bo‘lsin barchasi shaxsni o‘zligini tanishga, bilim va dunyoqarashini kengaya borishida zarur ahamiyat kasb etadi. Aynan mazkur omillar ta’sirida inson ma’nan shakllanish bilan intellektual jihatdan yuksala boradi. Zamonaviy adabiyot va san’at asarlari shaxsni ma’naviy dunyosini boyitish, uni go‘zal voqeliklarning estetik jihatlaridan baxramand etish kabi xususiyatga ega. Ma’naviy g‘oyasi yuksak badiiy jozibador adabiyot va san’at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta’sir qilish va hayotiy voqea-hodisalarni teran mushohada etishga undash vositasida shaxs intellektual madaniyatining rivojiga muhim turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.491.
2. Alimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari.- Toshkent: 2015.—B.228.
3. https://yuz.uz/uz/news/manaviy-tarbiya--taraqqiyot-poydevori
4. https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/manaviyat-asoslari/o-quvchilarni-ma-naviy-axloqiy-tarbiyalash

https://wordlyknowledge.uz